
Archibald Maklish. Kitobning qudrati

Таниқли америкалик шоир, ёзувчи ва драматург, уч карра Пулитсер мукофоти билан тақдирланган, узоқ йиллар АҚШ конгресси кутубхонаси мудири, Америка санъат ва адабиёт академияси президенти бўлган Арчибалд Маклиш (1892 — 1982)нинг мамлакат китоб сотувчилари ассоциациясининг 1943 йил 6 майдаги мажлисида сўзланган нутқини сизга тақдим этар эканман, уни ўқиганингизда нотинч замонамизда юзага келган фожиалар, хусусан ДАИШ билан боғлиққонли воқеалар, бугунги кунда ўзимиз яшаб турган юртда кинофильмлар билан боғлиқ муаммолар ҳақида худди бугун ёзилган фикр-мулоҳазаларга дуч келасиз.Айни шунинг учун ҳам мазкур нутқни таржима қилиб эълон қилишни «Маънавий ҳаёт» журналига тавсия этган эдим.

Арчибалд Маклиш
КИТОБНИНГ ҚУДРАТИ
Америка китоб сотувчилари ассоциациясининг
1943 йил 6 майдаги мажлисида сўзланган нутқ



Биз бугун хотира куни муносабати билан йиғилдик деб айтсак, хато бўлмайди. Яхши биласиз, яна тўрт кундан кейин машъум китоб ёқиш фожиаси юз берганига ўн йил тўлади -1933 йил 10 май куни фашистлар йигирма беш минг китобни ўтда куйдирган эди.

Мен бу гапларни саналар тасодифан тўғри келиб қолгани ёки шу воқеага алоҳида эътибор қаратиш учунгина айтаётганим йўқ. Ўнинчи майда Берлиндаги гулханда китоблар ловуллаб ёнган эди, бугун, олтинчи майда эса Нью-Йоркда умрини китобга бахшида этган одамлар тантана қилмоқда. Йўқ, менинг таъкидламоқчи бўлганим шуки, ҳар иккала воқеа ҳам китобнинг нақадар улкан қудратга эгалигини яққол кўрсатади.

Янаям аниқроғи, мен бу икки воқеани шунинг учун таққослаяпманки, маълум маънода, Берлиндаги ёнғин китоб қандай улкан қудратга эга эканлигини кўрсатувчи энг ёрқин далил бўлган эди. Ҳолбуки, унинг ташкилотчилари айнан шуни асло истамаган. Яна шунинг учун таъкидлаяпманки, бу ёнғин баъзи бир оқибатларни ҳам келтириб чиқарди.

Фашистлар — нотўғри йўлдан юрган нодон ўспиринлардир, улар ҳаётда ўз ўрнини топа олмаган қаланғи-қасанғилар, ўғри, қотил, босқинчилардан ташкил топган тўда, ўз фашистча «тартиби»ни ўрнатган галадир. Фашистлар китоб ёқишдек ушбу жирканч шармандагарчиликка бежиз қўл урмаган, чунки улар нақадар нодон, жоҳил, қаҳру ғазабнинг қули бўлса ҳам, китобнинг қудратли қурол эканлигини яхши билишарди. Улар ҳур фикрли инсонлар яратган китоб фақат ҳур инсонларга хизмат қилишини, озод инсонларнинг мағрур тафаккурини акс эттиришини, маҳв этиш мушкул бўлган ўткир ва қудратли қурол эканлигини яхши тушунишган. Озодликни тиз чўктиришга қасд қилганлар энг аввал китобни — озодлик ҳуқуқлари халоскорини йўқотиши лозим эканини англаб етишган.

Шу боис мен сизга бир савол бермоқчиман, барчамиз — ўз ҳаётини китобсиз тасаввур қила олмайдиган ёзувчилар ва китоб савдоси вакиллари, ноширлар ва кутубхоначилар, олимлар ва жамоат арбоблари ўйлаб кўриши лозим бўлган савол бу. Биз — китобни таҳқирлаган фашистлардан шунчалик оташин бўлаётганлар, биз — китоблар устида ишлайдиган, уларни ўрганадиган ва улар ҳақида чиройли гапларни гапирадиганлар — китобнинг қудратига уни оловга ташлаган фашистларчалик юқори баҳо бера оламизми? Биз — китоб ёзувчилар ва уларни тарқатувчилар, тарғиб этувчилар — китобнинг аҳамиятини миридан-сиригача тўлиқ ҳис этамизми, уни фақат тилда эмас, бутун вужудимиз билан идрок эта оламизми, ҳеч қурса, китобдан қўрққани учунгина уни оловга ташлаган нокаслар англаганчалик англай оламизми?

Бу шунчаки бир савол эмас. Жудаям жиддий савол. Назаримда, мен унинг жавобини биламан. Сиз ҳам яхши биласиз. Бироқ яна шуни ҳам яхши биламизки, агар иблиснинг адвокати (1) жиддий хоҳласа, бизга жуда ёқимсиз бўлган яна бир чала жавобни қулоғимизга шипшитиши мумкин.

Иблиснинг билимдон адвокати биздан қутурган фашистлар жаҳолатини бир зумга унутишни ва ўзимизнинг кейинги ўн йилликдаги хатти-ҳаракатларимизни ёдга олиб, тўғрисини айтишимизни талаб қилиши ҳам мумкин: агар биз — ҳаётини китобга бағишлаган одамлар — китобнинг буюк таъсир кучига эга эканини, у инсонлар ва халқларнинг ҳаётини ўзгартирувчи восита эканини англагай бўлсак, шу йилларда ўзимизни китобнинг аҳамиятини дилдан ҳис қилган инсондай тутдикми ёки аксинча, унга пештахтадаги товарга, пластмассадан ясалган тиш чўткаси, лосьон бутилкаси ва ё дори-дармонга қарагандай қарадикми?

Бундай саволга жавоб бериш осон бўлмайди. Биз, иккиюзламачилик қилмасдан, 1920 йилларда ишлаб чиқилган ва 1930 йилларда кенг қўлланган китоб савдоси усуллари туфайли сотилаётган китоблар сони анча кўпайди, бозоргир китоблар

адади эса шундай суръатлар билан ошдики, тез орада улар учун тираж чеклови деган нарса умуман йўқолади, деб жавоб беришимиз мумкин. Бироқ жавобимизни тинглаган иблиснинг адвокати биздан яна сўрайди: «Айнан қандай китобларни сотдингиз? Оммавий тарқатишга мўлжалланган бу китоблар қандай тамойилга кўра танланди? Ва ниҳоят, уларнинг кенг кўламда тарқатилишидан қандай мақсад кўзланган эди? Ўша мақсадга эришдингизми?».

Бир нарса аниқ, — дейди у бизга, — ушбу китобларнинг бадиий қиммати масаласини бир четга қўйиб турган тақдиримизда ҳам (ўйлашимча, иблиснинг адвокати мазкур масалани кўтармаса, биз учун айни муддао бўларди) ушбу китобларда, уларга бўлган муносабатингизда сиз китобларга мамлакат ҳаётига ва унинг келажагига таъсир ўтказувчи қудратли қурол каби ёндашганингизни тасдиқловчи жиҳатлар жуда кам. Агар буюк мамлакатнинг халқи қачонлардир атрофида юз бераётган сирли ўзгаришларни пайқамаган бўлса, замона зайлидаги ғайриоддий ўзгаришлардан хабарсиз қолган бўлса, америкаликлар фашизмнинг тобора кучайиб бораётганидан ғафлатда қолгани ва бунга тайёр бўлмаганининг сабаби шу, бошқа изоҳга ҳожат йўқ. Харидоргир китоблар рўйхатида Эрнест Хемингуэйнинг «Қўнғироқ кимни чорлаяпти?» ёки Эд Тейлорнинг «Қўрқув стратегияси» ёхуд «Билл Ширернинг кундалиги» сингари нотинч дунё ҳақидаги, халқимиз эътибор билан ўқийдиган китоблар борми?

Ҳолбуки, душман Гонолулуга(2) бомба ёғдирмасидан ва Атлантика қирғоқларини ҳалок бўлганларнинг жасадлари босиб кетмасидан бурун, мамлакатга хавф-хатар булути соя солаётганини англаш имконини берувчи атиги бир нечта китоб бор эди, холос.

Ҳолбуки, сотувга чиқарилган китобларнинг аксариятини жаҳон тарихининг охирги ўн йиллигида ҳаммамиз учун ўлим хавфи юзага келиши ҳақида заррача ҳам тушунча бермайдиган асарлар ташкил қиларди.Уларни ўқиган одамлар Испанияда фашистлар уюштирган тўнтариш фашистларнинг оламшумул юриши бошланганининг аломати эканини, у бизнинг ҳам эркинлигимизга, ҳаётимизга хавф солишини; Чехословакия(3)нинг оккупация қилиниши фақат Судет вилоятининг фашизм томонидан босиб олинишини эмас, балки Германиядан анча узоқ мамлакатларни ҳам, шу жумладан, бизнинг диёрни ҳам забт этишга уринишни англатишини хаёлига ҳам келтирган эмас.

Америка ёзувчилари, гарчи ўшанда улардан ташқари жуда кам одам Испаниядаги воқеалар ҳақида ҳақиқатни айтишга журъат қилган бўлса-да, франкочилар(4)нинг кирдикорларини ўз номи билан тўнтариш деб атаб, мамлакатимизда фашизмга қарши илк ва жасур курашчилар сифатида майдонга чиққан эди. Шуни айтиб, яна америкалик ноширларнинг аксарияти антифашистик китобларни чоп этиш учун бор куч ва маблағини аямагани; халқни хавфдан огоҳ этишни ватанпарварлик бурчи деб билган ёзувчиларнинг асарлари қўлма-қўл бўлиб кетган ҳолатлар ҳам бўлгани сингари далилларни қалаштириб ташлаб, ушбу хаёлий мунозарани давом эттиришга ҳожат йўқ.

Буларнинг ҳаммасини, яна кўп далилларни иблиснинг адвокатига эътироз сифатида келтириш мумкин. Аммо, тан олайлик, умуман олганда биз китоб ёрдамида эришишимиз керак бўлган мақсадларни рўёбга чиқариш учун китобнинг имкониятларидан самарали фойдаландик, дея олмаймиз.

Америкада охирги йигирма йил мобайнида бу борада қилинган ишлар қониқарли эмас, десам, барчангиз фикримга қўшилсангиз керак. Тарихимизни ёдга олганда устма-уст қилинган хатоларни таҳлил қила туриб, Батаан(5) таслим бўлган ўша фожиали кундан, Коррехидор қўлдан кетган ўша фожиали кундан, фожиийликда улардан қолишмайдиган, ўзимизнинг масъулиятсизлигимиз ва калтабинлигимиз туфайли олдинги урушда қўлга киритган ҳамма нарсамиздан мосуво бўлган кунларга хаёлан қайтишимизга тўғри келади. Энди ортга бир назар ташласак, тарихимизнинг охирги чорак асри жинояткорона лоқайдликдан муқаррар бахтсизлик сари йўл бўлиб кўринади — баайни Европада юз берган фожиа сингари, албатта босиб ўтилиши лозим бўлган, машъум ва даҳшатли йўлдай туюлади, буни ҳеч ким инкор этмаса керак. Орамизда бугун ҳаммамизнинг бошимизга тушган кўргулик учун жавобгар бўлмаган, айниқса, ҳаёти китоб билан боғлиқ бўлгани учун ҳам элнинг бошига тушган кўргулик учун жавобгар бўлмаган одам ёки жамоат йўқ, бу фикримга ҳам барчангиз қўшилсангиз керак.

Аммо энди шунчаки ўтмишни кавлаштириш ва йўл қўйилган хатолар учун пушаймон қилиш етарли эмас, умумий масъулият ҳисси ўзининг алоҳида, айнан унга юклатилган бурчини англаб етган ҳар бир кишининг шахсий масъулиятига айланиши шарт. Бу туйғу бизни ҳаракатга ундамоғи лозим. Масалан, кино саноати ҳақида гап кетганда унинг вакиллари беш-ўн йил илгари кинонинг ягона вазифаси томошабиннинг кўнглини ёзишдир, кинотеатрларнинг электр чироқлари билан чароғон остоналаридан узоқ жойларда нима бўлса бўлар, деб ишонтирганларнинг бошига таъна тошларини ёғдириши етарли эмас. Эндиликда кино саноати кўплаб ҳақиқатларнинг кўзига тик боқиши ва ўзи учун зарур хулосаларни чиқариб олиши даркор.

Ушбу ҳақиқатларнинг энг асосийси шуки, кинофильмлар мамлакатимиз ҳаётига кучли таъсир кўрсатади, картина муаллифи хоҳлайдими-йўқми, бу бир кунмас-бир кун ўз мевасини беради. Чунки чалғитувни ёки ҳаёт ҳақида ёлғон тасаввур уйғотувчи картиналар ҳам томошабинларга ҳаққоний, ҳаётни ойнадагидек акс эттирувчи картиналар сингари кучли таъсир қилади-ю, охир-оқибат иллюзияга, ўз-ўзини алдашга олиб келади. Тан олиш керакки, кино саноатининг шунчаки халқнинг димоғини чоғ қилишга интилаётгани ва ижтимоий қарашларни шакллантиришга ҳеч қандай алоқаси йўқлигини баҳона қилиб, Америкада юзага келган ижтимоий фикр учун жавобгарликни ўзидан соқит қилишга уриниши асоссиз ва ножўя уринишдир.

Эътироф этиш лозимки, Америка халқи ҳозирги замон қандай хусусиятларга эгалиги ва дунёга қандай хавф-хатарлар соя солаётганини илгарироқ, анча илгарироқ англаб етмагани учун кино саноати радио, матбуот, китобчи- лик, коллежлар, мактаблар, биз ҳаммамиз каби шак-шубҳасиз жавобгардир.

Илгарилари кино саноати кўнгилочар кино билан одамларга таъсир ўтказувчи кино ўртасида фарқ борлигини даъво қилган бўлса-да, аслида, катта тафовут мавжуд эмас. Дунёни ҳаққоний тасвирлашга уриниш томошабинга қандай таъсир қилса, уни аслидагидан бошқача тасвирлашга уриниш ҳам ўшандай таъсир қилади; бизнинг фожиали, хавф-хатарга тўла замонамизда одамлар дуч келаётган ҳақиқий муаммолар кўрсатилмасдан, бунинг ўрнига сон-саноқсиз келишган оёқчалардан ҳамда ҳаммасида бир хил табассум жилваланадиган чеҳралардан баҳра олиш таклиф қилинадиган, ҳақиқатдан анча узоқ Ҳолливуд ленталари қандай «тарғибот филмлари» бўлса, «Бир шингил қаҳр» (6) ва «Испан диёри» (7) ҳам шундай «тарғибот филмлари» ҳисобланади, заррача ортиқ эмас. Қолаверса, ушбу оёқчалар ва табассумларни «тарғибот» деб аташ тўғрироқдир, чунки америкаликларнинг кўпчилиги уларда тасвирланадиган дунё, аниқроғи, антидунё ҳақиқатан ҳам мавжудлигига йиллар давомида аста-секин ишониб қолишди, то осмондан бомбалар ёғилиб, кўз олдини чанг-тўзон қоплаб, олдиларида нурафшон экран ўрнига кинотеатрнинг сувоқлари кўчиб тушган оддий ғишт девори намоён бўлмагунча шунга ишонишди…

Аммо ёзувчилар, вазифаси китобни ўқувчиларга етказиш бўлган инсонлар ҳақида ҳам шундай дейиш мумкин. Ҳаммамизнинг зиммамизда масъулият бўлгани сингари, китоб сотиш ҳам масъулиятли иш, демак, кино саноати каби, ёзувчилар, кутубхоначилар ва бошқалар каби китобчилик ҳам ўз айбини тан олиши керак. Йигирманчи ва ўттизинчи йилларда амал қилинган китоб тарқатиш тамойиллари кинодаги шунга ўхшаш томойиллар қандай оқибатларга олиб келган бўлса, шундай оқибатларни келтириб чиқарди. Китобчиликда ҳам — унчалик ошкора ва аниқ бўлмаса-да — китобга товар сифатида, талаб бўлгани учун сотилиши керак бўлган буюм сингари қараш шаклланган, сотилган китобнинг мазмуни учун китобчи (ношир) жавоб бермайди, деган фикр кенг тарқалган эди. Китоблар емакхоналарда арзон нархларда сотилгани боис, китоб сотувчилар уларга фақат нарх-наво билан қизиқувчи емакхона эгаларининг кўзи ила қарашга ўрганиб қолди. Китоб баҳоси уч доллар ёки тўқсон саккиз цент бўлган товар ҳисобланар, товар сифатида сотиларди. Китобнинг машҳурлиги юз минг ё беш юз минг ёки миллион нусхада сотилишига қараб ўлчанарди. Йирик дўконларда китоблар муайян бичимдаги костюмлар танлангандек танланарди, иккаласида ҳам харидорга айнан ушбу модел ёқади, деган тамойилга амал қилинарди.

Бошқача айтганда, кинода нима юз берган бўлса, китобчиликда ҳам деярли ўша нарса юз берди, аммо оқибати жуда аянчли бўлиб чиқди. Ёдда тутиш керакки, йигирманчи йилларгача китобчилик билан бу ишнинг масъулиятини тўла ҳис қилган одамлар шуғулланган, кейинчалик уларнинг издошлари бу масъулиятдан қоча бошладилар. Китобчилик, шубҳасиз, масъулиятни ҳис қилиш жуда ҳам зарур бўлган касблардан бири. Ўтган асрда, ундан аввалги асрда ҳам китоблар уларга товар эмас, айнан китоб сифатида қараган кишилар томонидан; ўзи сотаётган китоб ҳақида маълум бир фикри бўлган ва шу фикрини асослаб бера оладиган кишилар

томонидан; харидорлари улар билан бирон-бир роман неча нусхада сотилгани ҳақида эмас, ўша романнинг ўзи, ютуқ ва камчиликлари, фазилатлари ҳақида гурунглашадиган кишилар томонидан сотилган.

Гарчи, бу афсусланарли ҳолат бўлса-да, фожиа китобчиликда китоб савдосининг эски тамойилларига амал қилмай қўйилганидагина эмас. Фожиа шундаки, китоб сотувчилар ўз вазифаларини буткул унутиб қўйишди — ушбу жудаям муҳим вазифа туфайли уларнинг фаолияти китобларда ифодаланган ғояларнинг кенг ёйилишида муҳим аҳамият касб этарди.

Китоблар — ҳақиқий китоблар — ўз-ўзидан сотилиб кетмайди. Ҳақиқий китобнинг муқоваси қанчалик чиройли бўлмасин, унда китобнинг мазмун-моҳияти қанчалик маҳорат билан акс эттирилган бўлмасин, китобнинг ташқи кўриниши одамларда уни албатта сотиб олиб, ўқиб чиқиш керак экан, деган фикр уйғотолмайди. Ҳақиқий китоблар уларнинг қандай китоблигини биладиган ва уларга ҳурмат билан муносабатда бўладиган одамларнинг ғайрат-шижоати туфайли сотилади. Бу ғайрат-шижоат эса аввало китобни илк бор варақлаб чиқаётган ўқувчини ишонтиришга қаратилган бўлиши керак. Энг ҳурматли танқидчи ёзган энг беназир тақриз ҳам ўқувчининг ўқувчи билан гурунгидан камроқ фойда келтиради. Бундай гурунгларда эса ҳар доим ўз китобларини ҳам, ўз харидорларини ҳам яхши биладиган китобчи энг обрўли суҳбатдош саналади. Агар китоб савдосида шундай сотувчилар қолмаса, бу савдо ҳамма нарсани улкан ва ёрқин реклама плакатлари ҳал қиладиган, муваффақият ва муваффақиятсизлик ҳақида эса олинган даромадга қараб баҳо бериладиган совун ёки консерва савдоси каби оддий, ўртамиёна савдога айланади.

Китоб савдосида яна ҳақиқий китобчининг вазифаси ҳақидаги ғоя қарор топмас экан, китоблар ўзининг юксак ролини, даврнинг ижтимоий руҳини белгилаш ролини бажара олмайди; урушаётган мамлакатимизнинг минг-минглаб ўқувчилари ўқиб чиқиши лозим бўлган китоблар уларнинг ўндан бири, ҳатто юздан бирининг ҳам қўлига етиб бориши гумонлигича қолаверади.

Мамлакатимиз учун китоб ҳали ҳеч қачон бугунгидек аҳамият касб этмаган эди. Кўпинча ҳал қилиниши зарур бўлган муаммоларни, бартараф этилиши керак бўлган ғовларни бехато аниқлашга фақат китобгина ёрдам бера олади. Фақат китобларгина, масалан, урушдан кейинги дунё қандай бўлиши сингари ҳаммамизни қаттиқ хавотирга солаётган масалаларни муҳокама қилиш учун майдон бўлиши мумкин. Ниҳоят, олдимизда турган энг асосий масала — давримиз қандай давр эканлиги масаласи фақат бунинг учун етарли ўрин ва имкон берувчи китоблардагина ўртага ташланган ва муҳокама қилинган бўлиши мумкин. Бизнинг замонда яшовчи одамлар ҳали унинг ўзига хос хусусиятларини англаб етмаган экан, китоб бизни ундаётган тўхтовсиз изланишгина ҳозирги замон маънисини англаш имконини беради.

Шунинг учун ҳам ҳали кўп ойлар, эҳтимол, йиллар давомида китоблар тарихимизни шакллантириб, ҳаётимизда ғоят катта ва жуда муҳим рол ўйнайди. Мен фақат иқтисод ва сиёсатга оид китоблар ҳақида гапираётганим йўқ. Эндиликда сўз

усталарининг, шоирларнинг ҳаётнинг маъноси ва паст-баландини ҳаммамиз учун аниқ-равшан кўрсатиб берадиган асарлари, романчиларнинг бизнинг алғов-далғов ва чалкаш ҳаётимизга тартиб ва маъно бағишловчи асарлари ҳар қачонгидан ҳам муҳим аҳамият касб этмоқда.

Китоблар бундан кейин ҳам ёзилади — бунга шубҳа қилмасангиз ҳам бўлади. Замона эҳтиёжлари давр талабига мос китобларни юзага келтираверади. Аммо китоб ёзишнинг ўзи етарли эмас. Жиддий тақризлар босиладиган кам сонли газета ва журналларнинг адабиёт саҳифаларида улар ҳақида тақриз эълон қилишнинг ўзи етарли эмас. Агар биз китобларда кўтарилган масалаларни жамоатчилик кенг муҳокама қилишини хоҳласак — бу жуда зарур — бундай китоблар уларга эҳтиёжи бор ўқувчиларнинг, шундай эҳтиёжни ҳис қилувчи, лекин уни қандай қондиришни билмайдиган ўқувчиларнинг қўлига етиб боришига эришишимиз керак.

Китобчиларнинг ҳар қачонгидан ҳам аниқ-равшан бурчи, қоғозга ўралган босма маҳсулотларни пуллаш билан шуғулланувчи одамлар бажара олмаётган, бажаришга уриниб кўриши керак бўлган бурч мана шу. Бу замон ўзгаришларини ҳис қиладиган ҳар қандай кишини илҳомлантирувчи бурч, ҳар ким ўзини қувонч ва ғурур билан бахш этиши мумкин бўлган бурчдир. Бошқача айтганда, бу айнан китоблар ва одамларни жуда қаттиқ севувчи, уларни бир-бирига яқинлаштириш учун жонини ҳам беришга тайёр инсонларнинг бурчидир. Улар учун бундан муқаддасроқ бурч бўлмайди.

Бу бурчга риоя қилиш учун киши, аввало, ўзининг оғир, аммо муносиб вазифасини — нафақат профессионал, шу билан бирга инсоний вазифасини — ўз эҳтиёжларини билдираётган одамлар ва бизнинг давримизда яратилаётган адабиёт ўртасида воситачи бўлиш вазифасини англаши ва зиммасига олиши лозим. Ҳақиқий китобчигина китобни ҳам, ўқувчини ҳам жуда яхши билгани каби, бу вазифага уларни миридан-сиригача билувчи одамгина лойиқдир. Илм одами илмий даражаларни қандай билса, у ҳам янги-ю эски китобларни шундай билиши, маҳаллий врач ўз ҳудудидаги одамларни беш қўлдай билиб олгани сингари, у ҳам ўз ҳамшаҳарларини шундай билиб олиши даркор. Бошқача айтганда, у ўқувчилар китоблардан нима олишни хоҳлаётганини ва китобларнинг муаллифлари уларга нимани ўргата олишини билиши керак. Ва у ўқувчи билан китобни *sub specia aeternitates* (8) эмас, келажак кунларнинг бирида эмас, бизнинг оловли, қайғули, аммо умид чироғи ўчмаган шу кунларимизда, бугуноқ юзма-юз учраштириб қўйиши шарт.

Изоҳлар

———————

1. Ўрта асрларда Европада бирон-бир руҳонийни авлиё деб тан олиш учун черковда муҳокама ўтказилган. Бир киши унинг фазилатларини, яна бир киши нуқсонларини айтиб турган. Нуқсонларни сановчи кишини «иблиснинг адвокати» деб аташган.
2. Гавайи ороллариниг лойтахти, у ва Пёрл-Харбор япон авиацияси томонидан

1941 йил 7 декабрда бомбардимон қилинган.
3. Чехия ва Словакия 1993 йил 1 январгача битта давлат бўлган.
4. Испанияда генерал Франко ўрнатган диктатура тарафдорлари
5. Филиппиннинг энг йирик ороллaридан бири бўлмиш Лузонадаги жой, 1942 йил 9 апрелда япон қўшини томонидан босиб олинган. Америка қўшини Коррехидор қалъасига чекинган ва бир ойдан сўнг таслим бўлган.
6. Жон Стейнбекнинг шу номли романи асосида режиссёр Жон Форд томонидан 1940 йилда суратга олинган бадиий филм.
7. Режиссёр ва оператор Йорис Ивенс томонидан Эрнест Ҳемингуэй билан биргаликда 1937 йили суратга олинган ҳужжатли филм.
8. Sub specia aeternitates — Абадият нуқтаи назаридан (лотинча)

Ҳасан Карвонли таржимаси
Манба: «Маънавий ҳаёт» журнали, 2015/ 4



Taniqli amerikalik shoir, yozuvchi va dramaturg, uch karra Pulitser mukofoti bilan taqdirlangan, uzoq yillar AQSH kongressi kutubxonasi mudiri, Amerika san’at va adabiyot akademiyasi prezidenti bo’lgan Archibald Maklish (1892 — 1982)ning mamlakat kitob sotuvchilari assotsiatsiyasining 1943 yil 6 maydagi majlisida so’zlangan nutqini sizga taqdim etar ekanman, uni o’qiganingizda notinch zamonamizda yuzaga kelgan fojialar, xususan DAISH bilan bog’liqqonli voqealar, bugungi kunda o’zimiz yashab turgan yurtda kinofil`mlar bilan bog’liq muammolar haqida xuddi bugun yozilgan fikr-mulohazalarga duch kelasiz.Ayni shuning uchun ham mazkur nutqni tarjima qilib e’lon qilishni «Ma’naviy hayot» jurnaliga tavsiya etgan edim.

Archibald Maklish
KITOBNING QUDRATI
Amerika kitob sotuvchilari assotsiatsiyasining 1943 yil 6 maydagi majlisida so’zlangan nutq

Biz bugun xotira kuni munosabati bilan yig’ildik deb aytsak, xato bo’lmaydi. Yaxshi bilasiz, yana to’rt kundan keyin mash’um kitob yoqish fojiasi yuz berganiga o’n yil to’ladi -1933 yil 10 may kuni fashistlar yigirma besh ming kitobni o’tda kuydirgan edi.

Men bu gaplarni sanalar tasodifan to’g’ri kelib qolgani yoki shu voqeaga alohida e’tibor qaratish uchungina aytayotganim yo’q. O’ninchi mayda Berlindagi gulxanda kitoblar lovullab yongan edi, bugun, oltinchi mayda esa N`yu-Yorkda umrini kitobga baxshida etgan odamlar tantana qilmoqda. Yo’q, mening ta’kidlamoqchi bo’lganim shuki, har ikkala voqea ham kitobning naqadar ulkan qudratga egaligini yaqqol ko’rsatadi.

Yanayam aniqrog’i, men bu ikki voqeani shuning uchun taqqoslayapmanki, ma’lum ma’noda, Berlindagi yong’in kitob qanday ulkan qudratga ega ekanligini ko’rsatuvchi eng yorqin dalil bo’lgan edi. Holbuki, uning tashkilotchilari aynan shuni aslo istamagan. Yana shuning uchun ta’kidlayapmanki, bu yong’in ba’zi bir oqibatlarni ham keltirib chiqardi.

Fashistlar — noto’g’ri yo’ldan yurgan nodon o’spirinlardir, ular hayotda o’z o’rnini topa olmagan qalang’i-qasang’ilar, o’g’ri, qotil, bosqinchilardan tashkil topgan to’da, o’z fashistcha «tartibi»ni o’rnatgan galadir. Fashistlar kitob yoqishdek ushbu jirkanch sharmandagarchilikka bejiz qo’l urmagan, chunki ular naqadar nodon, johil, qahru g’azabning quli bo’lsa ham, kitobning qudratli qurol ekanligini yaxshi bilishardi. Ular hur fikrli insonlar yaratgan kitob faqat hur insonlarga xizmat qilishini, ozod insonlarning mag’rur tafakkurini aks ettirishini, mahv etish mushkul bo’lgan o’tkir va qudratli qurol ekanligini yaxshi tushunishgan. Ozodlikni tiz cho’ktirishga qasd qilganlar eng avval kitobni — ozodlik huquqlari xaloskorini yo’qotishi lozim ekanini anglab yetishgan.

Shu bois men sizga bir savol bermoqchiman, barchamiz — o’z hayotini kitobsiz tasavvur qila olmaydigan yozuvchilar va kitob savdosi vakillari, noshirlar va kutubxonachilar, olimlar va jamoat arboblari o’ylab ko’rishi lozim bo’lgan savol bu. Biz — kitobni tahqirlagan fashistlardan shunchalik otashin bo’layotganlar, biz — kitoblar ustida ishlaydigan, ularni o’rganadigan va ular haqida chiroyli gaplarni gapiradiganlar — kitobning qudratiga uni olovga tashlagan fashistlarchalik yuqori baho bera olamizmi? Biz — kitob yozuvchilar va ularni tarqatuvchilar, targ’ib etuvchilar — kitobning ahamiyatini miridan-sirigacha to’liq his etamizmi, uni faqat tilda emas, butun vujudimiz bilan idrok eta olamizmi, hech qursa, kitobdan qo’rqqani uchungina uni olovga tashlagan nokaslar anglaganchalik anglay olamizmi?

Bu shunchaki bir savol emas. Judayam jiddiy savol. Nazarimda, men uning javobini bilaman. Siz ham yaxshi bilasiz. Biroq yana shuni ham yaxshi bilamizki, agar iblisning advokati (1) jiddiy xohlasa, bizga juda yoqimsiz bo’lgan yana bir chala javobni qulog’imizga shipshitishi mumkin.

Iblisning bilimdon advokati bizdan quturgan fashistlar jaholatini bir zumga unutishni va o’zimizning keyingi o’n yillikdagi xatti-harakatlarimizni yodga olib, to’g’risini aytishimizni talab qilishi ham mumkin: agar biz — hayotini kitobga bag’ishlagan odamlar — kitobning buyuk ta’sir kuchiga ega ekanini, u insonlar va xalqlarning hayotini o’zgartiruvchi vosita

ekanini anglagay bo’lsak, shu yillarda o’zimizni kitobning ahamiyatini dildan his qilgan insonday tutdikmi yoki aksincha, unga peshtaxtadagi tovarga, plastmassadan yasalgan tish cho’tkasi, los`on butilkasi va yo dori-darmonga qaraganday qaradikmi?

Bunday savolga javob berish oson bo’lmaydi. Biz, ikkiyuzlamachilik qilmasdan, 1920 yillarda ishlab chiqilgan va 1930 yillarda keng qo’llangan kitob savdosi usullari tufayli sotilayotgan kitoblar soni ancha ko’paydi, bozorgir kitoblar adadi esa shunday sur’atlar bilan oshdiki, tez orada ular uchun tiraj cheklovi degan narsa umuman yo’qoladi, deb javob berishimiz mumkin. Biroq javobimizni tinglagan iblisning advokati bizdan yana so’raydi: «Aynan qanday kitoblarni sotdingiz? Ommaviy tarqatishga mo’ljallangan bu kitoblar qanday tamoyilga ko’ra tanlandi? Va nihoyat, ularning keng ko’lamda tarqatilishidan qanday maqsad ko’zlangan edi? O’sha maqsadga erishdingizmi?».

Bir narsa aniq, — deydi u bizga, — ushbu kitoblarning badiiy qimmati masalasini bir chetga qo’yib turgan taqdirimizda ham (o’ylashimcha, iblisning advokati mazkur masalani ko’tarmasa, biz uchun ayni muddao bo’lardi) ushbu kitoblarda, ularga bo’lgan munosabatingizda siz kitoblarga mamlakat hayotiga va uning kelajagiga ta’sir o’tkazuvchi qudratli qurol kabi yondashganingizni tasdiqlovchi jihatlar juda kam. Agar buyuk mamlakatning xalqi qachonlardir atrofida yuz berayotgan sirli o’zgarishlarni payqamagan bo’lsa, zamona zaylidagi g’ayrioddiy o’zgarishlardan xabarsiz qolgan bo’lsa, amerikaliklar fashizmning tobora kuchayib borayotganidan g’aflatda qolgani va bunga tayyor bo’lmaganining sababi shu, boshqa izohga hojat yo’q. Xaridorgir kitoblar ro’yxatida Ernest Xemingueyning «Qo’ng’iroq kimni chorlayapti?» yoki Ed Teylorning «Qo’rquv strategiyasi» yoxud «Bill Shirerning kundaligi» singari notinch dunyo haqidagi, xalqimiz e’tibor bilan o’qiydigan kitoblar bormi?

Holbuki, dushman Gonoluluga(2) bomba yog’dirmasidan va Atlantika qirg’oqlarini halok bo’lganlarning jasadlari bosib ketmasidan burun, mamlakatga xavf-xatar buluti soya solayotganini anglash imkonini beruvchi atigi bir nechta kitob bor edi, xolos.

Holbuki, sotuvga chiqarilgan kitoblarning aksariyatini jahon tarixining oxirgi o’n yilligida hammamiz uchun o’lim xavfi yuzaga kelishi haqida zarracha ham tushuncha bermaydigan asarlar tashkil qilardi.Ularni o’qigan odamlar Ispaniyada fashistlar uyushtirgan to’ntarish fashistlarning olamshumul yurishi boshlanganining alomati ekanini, u bizning ham erkinligimizga, hayotimizga xavf solishini; Chexoslovakiya(3)ning okkupatsiya qilinishi faqat Sudet viloyatining fashizm tomonidan bosib olinishini emas, balki Germaniyadan ancha uzoq mamlakatlarni ham, shu jumladan, bizning diyorni ham zabt etishga urinishni anglatishini xayoliga ham keltirgan emas.

Amerika yozuvchilari, garchi o’shanda ulardan tashqari juda kam odam Ispaniyadagi voqealar haqida haqiqatni aytishga jur’at qilgan bo’lsa-da, frankochilar(4)ning kirdikorlarini o’z nomi bilan to’ntarish deb atab, mamlakatimizda fashizmga qarshi ilk va jasur kurashchilar sifatida maydonga chiqqan edi. Shuni aytib, yana amerikalik noshirlarning aksariyati antifashistik kitoblarni chop etish uchun bor kuch va mablag’ini ayamagani;

xalqni xavfdan ogoh etishni vatanparvarlik burchi deb bilgan yozuvchilarning asarlari qo’lma-qo’l bo’lib ketgan holatlar ham bo’lgani singari dalillarni qalashtirib tashlab, ushbu xayoliy munozarani davom ettirishga hojat yo’q.

Bularning hammasini, yana ko’p dalillarni iblisning advokatiga e’tiroz sifatida keltirish mumkin. Ammo, tan olaylik, umuman olganda biz kitob yordamida erishishimiz kerak bo’lgan maqsadlarni ro’yobga chiqarish uchun kitobning imkoniyatlaridan samarali foydalandik, deya olmaymiz.

Amerikada oxirgi yigirma yil mobaynida bu borada qilingan ishlar qoniqarli emas, desam, barchangiz fikrimga qo’shilsangiz kerak. Tariximizni yodga olganda ustma-ust qilingan xatolarni tahlil qila turib, Bataan(5) taslim bo’lgan o’sha fojiali kundan, Korrexidor qo’ldan ketgan o’sha fojiali kundan, fojiiylikda ulardan qolishmaydigan, o’zimizning mas’uliyatsizligimiz va kaltabinligimiz tufayli oldingi urushda qo’lga kiritgan hamma narsamizdan mosuvo bo’lgan kunlarga xayolan qaytishimizga to’g’ri keladi. Endi ortga bir nazar tashlasak, tariximizning oxirgi chorak asri jinoyatkorona loqaydlikdan muqarrar baxtsizlik sari yo’l bo’lib ko’rinadi — baayni Yevropada yuz bergan fojia singari, albatta bosib o’tilishi lozim bo’lgan, mash’um va dahshatli yo’lday tuyuladi, buni hech kim inkor etmasa kerak. Oramizda bugun hammamizning boshimizga tushgan ko’rgulik uchun javobgar bo’lmagan, ayniqsa, hayoti kitob bilan bog’liq bo’lgani uchun ham elning boshiga tushgan ko’rgulik uchun javobgar bo’lmagan odam yoki jamoat yo’q, bu fikrimga ham barchangiz qo’shilsangiz kerak.

Ammo endi shunchaki o’tmishni kavlashtirish va yo’l qo’yilgan xatolar uchun pushaymon qilish yetarli emas, umumiy mas’uliyat hissi o’zining alohida, aynan unga yuklatilgan burchini anglab yetgan har bir kishining shaxsiy mas’uliyatiga aylanishi shart. Bu tuyg’u bizni harakatga undamog’i lozim. Masalan, kino sanoati haqida gap ketganda uning vakillari besh-o’n yil ilgari kinoning yagona vazifasi tomoshabinning ko’nglini yozishdir, kinoteatrlarning elektr chiroqlari bilan charog’on ostonalaridan uzoq joylarda nima bo’lsa bo’lar, deb ishontirganlarning boshiga ta’na toshlarini yog’dirishi yetarli emas. Endilikda kino sanoati ko’plab haqiqatlarning ko’ziga tik boqishi va o’zi uchun zarur xulosalarni chiqarib olishi darkor.

Ushbu haqiqatlarning eng asosiysi shuki, kinofil`mlar mamlakatimiz hayotiga kuchli ta’sir ko’rsatadi, kartina muallifi xohlaydimi-yo’qmi, bu bir kunmas-bir kun o’z mevasini beradi. Chunki chalg’ituvni yoki hayot haqida yolg’on tasavvur uyg’otuvchi kartinalar ham tomoshabinlarga haqqoniy, hayotni oynadagidek aks ettiruvchi kartinalar singari kuchli ta’sir qiladi-yu, oxir-oqibat illyuziyaga, o’z-o’zini aldashga olib keladi. Tan olish kerakki, kino sanoatining shunchaki xalqning dimog’ini chog’ qilishga intilayotgani va ijtimoiy qarashlarni shakllantirishga hech qanday aloqasi yo’qligini bahona qilib, Amerikada yuzaga kelgan ijtimoiy fikr uchun javobgarlikni o’zidan soqit qilishga urinishi asossiz va nojo’ya urinishdir.

E’tirof etish lozimki, Amerika xalqi hozirgi zamon qanday xususiyatlarga egaligi va dunyoga qanday xavf-xatarlar soya solayotganini ilgariroq, ancha ilgariroq anglab yetmagani uchun kino sanoati radio, matbuot, kitobchi- lik, kollejlar, maktablar, biz

hammamiz kabi shak-shubhasiz javobgardir.

Ilgarilari kino sanoati ko'ngilochar kino bilan odamlarga ta'sir o'tkazuvchi kino o'rtasida farq borligini da'vo qilgan bo'lsa-da, aslida, katta tafovut mavjud emas. Dunyoni haqqoniy tasvirlashga urinish tomoshabinga qanday ta'sir qilsa, uni aslidagidan boshqacha tasvirlashga urinish ham o'shanday ta'sir qiladi; bizning fojiali, xavf-xatarga to'la zamonamizda odamlar duch kelayotgan haqiqiy muammolar ko'rsatilmasdan, buning o'rniga son-sanoqsiz kelishgan oyoqchalardan hamda hammasida bir xil tabassum jilvalanadigan chehralardan bahra olish taklif qilinadigan, haqiqatdan ancha uzoq Hollivud lentalari qanday «targ'ibot filmlari» bo'lsa, «Bir shingil qahr» (6) va «Ispan diyori» (7) ham shunday «targ'ibot filmlari» hisoblanadi, zarracha ortiq emas. Qolaversa, ushbu oyoqchalar va tabassumlarni «targ'ibot» deb atash to'g'riroqdir, chunki amerikaliklarning ko'pchiligi ularda tasvirlanadigan dunyo, aniqrog'i, antidunyo haqiqatan ham mavjudligiga yillar davomida asta-sekin ishonib qolishdi, to osmondan bombalar yog'ilib, ko'z oldini chang-to'zon qoplab, oldilarida nurafshon ekran o'rniga kinoteatrning suvoqlari ko'chib tushgan oddiy g'isht devori namoyon bo'lmaguncha shunga ishonishdi…

Ammo yozuvchilar, vazifasi kitobni o'quvchilarga yetkazish bo'lgan insonlar haqida ham shunday deyish mumkin. Hammamizning zimmamizda mas'uliyat bo'lgani singari, kitob sotish ham mas'uliyatli ish, demak, kino sanoati kabi, yozuvchilar, kutubxonachilar va boshqalar kabi kitobchilik ham o'z aybini tan olishi kerak. Yigirmanchi va o'ttizinchi yillarda amal qilingan kitob tarqatish tamoyillari kinodagi shunga o'xshash tomoyillar qanday oqibatlarga olib kelgan bo'lsa, shunday oqibatlarni keltirib chiqardi. Kitobchilikda ham — unchalik oshkora va aniq bo'lmasa-da — kitobga tovar sifatida, talab bo'lgani uchun sotilishi kerak bo'lgan buyum singari qarash shakllangan, sotilgan kitobning mazmuni uchun kitobchi (noshir) javob bermaydi, degan fikr keng tarqalgan edi. Kitoblar yemakxonalarda arzon narxlarda sotilgani bois, kitob sotuvchilar ularga faqat narx-navo bilan qiziquvchi yemakxona egalarining ko'zi ila qarashga o'rganib qoldi. Kitob bahosi uch dollar yoki to'qson sakkiz sent bo'lgan tovar hisoblanar, tovar sifatida sotilardi. Kitobning mashhurligi yuz ming yo besh yuz ming yoki million nusxada sotilishiga qarab o'lchanardi. Yirik do'konlarda kitoblar muayyan bichimdagi kostyumlar tanlangandek tanlanardi, ikkalasida ham xaridorga aynan ushbu model yoqadi, degan tamoyilga amal qilinardi.

Boshqacha aytganda, kinoda nima yuz bergan bo'lsa, kitobchilikda ham deyarli o'sha narsa yuz berdi, ammo oqibati juda ayanchli bo'lib chiqdi. Yodda tutish kerakki, yigirmanchi yillargacha kitobchilik bilan bu ishning mas'uliyatini to'la his qilgan odamlar shug'ullangan, keyinchalik ularning izdoshlari bu mas'uliyatdan qocha boshladilar. Kitobchilik, shubhasiz, mas'uliyatni his qilish juda ham zarur bo'lgan kasblardan biri. O'tgan asrda, undan avvalgi asrda ham kitoblar ularga tovar emas, aynan kitob sifatida qaragan kishilar tomonidan; o'zi sotayotgan kitob haqida ma'lum bir fikri bo'lgan va shu fikrini asoslab bera oladigan kishilar tomonidan; xaridorlari ular bilan biron-bir roman necha nusxada sotilgani haqida emas, o'sha romanning o'zi, yutuq va kamchiliklari, fazilatlari haqida gurunglashadigan kishilar tomonidan sotilgan.

Garchi, bu afsuslanarli holat bo’lsa-da, fojia kitobchilikda kitob savdosining eski tamoyillariga amal qilmay qo’yilganidagina emas. Fojia shundaki, kitob sotuvchilar o’z vazifalarini butkul unutib qo’yishdi — ushbu judayam muhim vazifa tufayli ularning faoliyati kitoblarda ifodalangan g’oyalarning keng yoyilishida muhim ahamiyat kasb etardi.

Kitoblar — haqiqiy kitoblar — o’z-o’zidan sotilib ketmaydi. Haqiqiy kitobning muqovasi qanchalik chiroyli bo’lmasin, unda kitobning mazmun-mohiyati qanchalik mahorat bilan aks ettirilgan bo’lmasin, kitobning tashqi ko’rinishi odamlarda uni albatta sotib olib, o’qib chiqish kerak ekan, degan fikr uyg’otolmaydi. Haqiqiy kitoblar ularning qanday kitobligini biladigan va ularga hurmat bilan munosabatda bo’ladigan odamlarning g’ayrat-shijoati tufayli sotiladi. Bu g’ayrat-shijoat esa avvalo kitobni ilk bor varaqlab chiqayotgan o’quvchini ishontirishga qaratilgan bo’lishi kerak. Eng hurmatli tanqidchi yozgan eng benazir taqriz ham o’quvchining o’quvchi bilan gurungidan kamroq foyda keltiradi. Bunday gurunglarda esa har doim o’z kitoblarini ham, o’z xaridorlarini ham yaxshi biladigan kitobchi eng obro’li suhbatdosh sanaladi. Agar kitob savdosida shunday sotuvchilar qolmasa, bu savdo hamma narsani ulkan va yorqin reklama plakatlari hal qiladigan, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik haqida esa olingan daromadga qarab baho beriladigan sovun yoki konserva savdosi kabi oddiy, o’rtamiyona savdoga aylanadi.

Kitob savdosida yana haqiqiy kitobchining vazifasi haqidagi g’oya qaror topmas ekan, kitoblar o’zining yuksak rolini, davrning ijtimoiy ruhini belgilash rolini bajara olmaydi; urushayotgan mamlakatimizning ming-minglab o’quvchilari o’qib chiqishi lozim bo’lgan kitoblar ularning o’ndan biri, hatto yuzdan birining ham qo’liga yetib borishi gumonligicha qolaveradi.

Mamlakatimiz uchun kitob hali hech qachon bugungidek ahamiyat kasb etmagan edi. Ko’pincha hal qilinishi zarur bo’lgan muammolarni, bartaraf etilishi kerak bo’lgan g’ovlarni bexato aniqlashga faqat kitobgina yordam bera oladi. Faqat kitoblargina, masalan, urushdan keyingi dunyo qanday bo’lishi singari hammamizni qattiq xavotirga solayotgan masalalarni muhokama qilish uchun maydon bo’lishi mumkin. Nihoyat, oldimizda turgan eng asosiy masala — davrimiz qanday davr ekanligi masalasi faqat buning uchun yetarli o’rin va imkon beruvchi kitoblardagina o’rtaga tashlangan va muhokama qilingan bo’lishi mumkin. Bizning zamonda yashovchi odamlar hali uning o’ziga xos xususiyatlarini anglab yetmagan ekan, kitob bizni undayotgan to’xtovsiz izlanishgina hozirgi zamon ma’nisini anglash imkonini beradi.

Shuning uchun ham hali ko’p oylar, ehtimol, yillar davomida kitoblar tariximizni shakllantirib, hayotimizda g’oyat katta va juda muhim rol o’ynaydi. Men faqat iqtisod va siyosatga oid kitoblar haqida gapirayotganim yo’q. Endilikda so’z ustalarining, shoirlarning hayotning ma’nosi va past-balandini hammamiz uchun aniq-ravshan ko’rsatib beradigan asarlari, romanchilarning bizning alg’ov-dalg’ov va chalkash hayotimizga tartib va ma’no bag’ishlovchi asarlari har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kitoblar bundan keyin ham yoziladi — bunga shubha qilmasangiz ham bo’ladi. Zamona ehtiyojlari davr talabiga mos kitoblarni yuzaga keltiraveradi. Ammo kitob yozishning o’zi yetarli emas. Jiddiy taqrizlar bosiladigan kam sonli gazeta va jurnallarning adabiyot

sahifalarida ular haqida taqriz e’lon qilishning o’zi yetarli emas. Agar biz kitoblarda ko’tarilgan masalalarni jamoatchilik keng muhokama qilishini xohlasak — bu juda zarur — bunday kitoblar ularga ehtiyoji bor o’quvchilarning, shunday ehtiyojni his qiluvchi, lekin uni qanday qondirishni bilmaydigan o’quvchilarning qo’liga yetib borishiga erishishimiz kerak.

Kitobchilarning har qachongidan ham aniq-ravshan burchi, qog’ozga o’ralgan bosma mahsulotlarni pullash bilan shug’ullanuvchi odamlar bajara olmayotgan, bajarishga urinib ko’rishi kerak bo’lgan burch mana shu. Bu zamon o’zgarishlarini his qiladigan har qanday kishini ilhomlantiruvchi burch, har kim o’zini quvonch va g’urur bilan baxsh etishi mumkin bo’lgan burchdir. Boshqacha aytganda, bu aynan kitoblar va odamlarni juda qattiq sevuvchi, ularni bir-biriga yaqinlashtirish uchun jonini ham berishga tayyor insonlarning burchidir. Ular uchun bundan muqaddasroq burch bo’lmaydi.

Bu burchga rioya qilish uchun kishi, avvalo, o’zining og’ir, ammo munosib vazifasini — nafaqat professional, shu bilan birga insoniy vazifasini — o’z ehtiyojlarini bildirayotgan odamlar va bizning davrimizda yaratilayotgan adabiyot o’rtasida vositachi bo’lish vazifasini anglashi va zimmasiga olishi lozim. Haqiqiy kitobchigina kitobni ham, o’quvchini ham juda yaxshi bilgani kabi, bu vazifaga ularni miridan-sirigacha biluvchi odamgina loyiqdir. Ilm odami ilmiy darajalarni qanday bilsa, u ham yangi-yu eski kitoblarni shunday bilishi, mahalliy vrach o’z hududidagi odamlarni besh qo’lday bilib olgani singari, u ham o’z hamshaharlarini shunday bilib olishi darkor. Boshqacha aytganda, u o’quvchilar kitoblardan nima olishni xohlayotganini va kitoblarning mualliflari ularga nimani o’rgata olishini bilishi kerak. Va u o’quvchi bilan kitobni *sub specia aeternitates* (8) emas, kelajak kunlarning birida emas, bizning olovli, qayg’uli, ammo umid chirog’i o’chmagan shu kunlarimizda, bugunoq yuzma-yuz uchrashtirib qo’yishi shart.

Izohlar

———————

1. O’rta asrlarda Yevropada biron-bir ruhoniyni avliyo deb tan olish uchun cherkovda muhokama o’tkazilgan. Bir kishi uning fazilatlarini, yana bir kishi nuqsonlarini aytib turgan. Nuqsonlarni sanovchi kishini «iblisning advokati» deb atashgan.
2. Gavayi orollarining loytaxti, u va Pyorl-Xarbor yapon aviatsiyasi tomonidan 1941 yil 7 dekabrda bombardimon qilingan.
3. Chexiya va Slovakiya 1993 yil 1 yanvargacha bitta davlat bo’lgan.
4. Ispaniyada general Franko o’rnatgan diktatura tarafdorlari
5. Filippinning eng yirik orollaridan biri bo’lmish Luzonadagi joy, 1942 yil 9 aprelda yapon qo’shini tomonidan bosib olingan. Amerika qo’shini Korrexidor qal’asiga chekingan va bir oydan so’ng taslim bo’lgan.
6. Jon Steynbekning shu nomli romani asosida rejissyor Jon Ford tomonidan 1940 yilda suratga olingan badiiy film.
7. Rejissyor va operator Yoris Ivens tomonidan Ernest Heminguey bilan birgalikda 1937 yili suratga olingan hujjatli film.
8. Sub specia aeternitates — Abadiyat nuqtai nazaridan (lotincha)

Hasan Karvonli tarjimasi
Manba: «Ma’naviy hayot» jurnali, 2015/ 4